


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




Dastlabki maʼlumotlar

Viloyat boʼyicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1063,9** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **5,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **86,3** mlrd. soʻmni (**47,8 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **977,6** mlrd. soʻmni (**1,7 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **627,9** mlrd. soʻmni (**1,6 %** ga oshdi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. soʻm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

JIZZAX VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020- yil yanvar-fevral

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi **1063,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan **5,6 %** ga kamaydi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,9 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,1 %** to'g'ri keldi.

Jizzax sh.
269,4

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **25,3 %** ulush bilan **269,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Zomin
155,5

G'allaorol
84,2

Paxtakor
43,9


Mirzacho'l
28,7

Arnasoy
23,7

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,1 %** ulush bilan **11,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, **977,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,7 %** ga oshdi . Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **91,9 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,3 %), G'allaorol (97,7 %), Forish (97,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.




Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2020- yil Yanvar-fevral
		2021- yil Yanvar-fevral

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1063876,1	94,4	86305,0	52,2	977571,1	101,7
Jizzax sh.	269427,9	84,1	25206,8	32,9	244221,1	100,1
tumanlar:						
Arnasoy	23738,0	96,7	270,0	128,4	23468,0	96,4
Baxmal	146806,6	94,9	46822,1	61,5	99984,5	127,3
G'allaorol	84203,3	99,9	1958,6	146,0	82244,8	99,1
Sharof Rashidov	169275,5	94,1	276,4	125,9	168999,1	94,1
Do'stlik	36911,0	104,9	1234,7	149,7	35676,3	103,8
Zomin	155529,8	101,3	5061,4	258,5	150468,4	99,3
Zarbdor	37482,5	105,9	1039,6	169,0	36442,8	104,8
Zafarobod	17566,3	99,8	307,9	135,6	17258,4	99,3
Mirzacho'l	28711,9	100,7	799,6	135,3	27912,3	100,0
Paxtakor	43936,8	104,2	2222,9	39,1	41713,8	114,4
Forish	38743,1	100,8	906,2	134,4	37836,9	100,2
Yangiobod	11543,3	96,5	198,6	130,1	11344,6	96,1

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

31,9




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 47,8 % ga kamaydi va **86,3 mlrd. soʻmni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,1 % ulushiga toʻgʻri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda


99,8



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 977,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,9 % ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyeklari


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyeklarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,3 %), G'allaorol (97,7 %), Forish (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (9,4 %), Paxtakor (5,1 %), Baxmal (31,9 %), Zomin (3,3 %) va Do'stlik (3,3 %) tumanlarida kuzatildi.



2021- yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar tovar aylanmasi 761,9 ming so'm (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 7,5 % ga kamaydi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (1504,3 ming so'm), Baxmal (931,5 ming so'm), Zomin (941,5 ming so'm) va Sharof Rashidov (758,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	761,9	92,5
Jizzax sh.	1504,3	82,6
tumanlar:		
Arnasoy	513,8	95,4
Baxmal	931,5	92,9
G'allaorol	486,2	97,8
Sharof Rashidov	758,4	91,6
Do'stlik	559,3	103,0
Zomin	941,5	99,2
Zarbdor	430,3	103,1
Zafarobod	350,6	98,2
Mirzacho'l	550,0	98,4
Paxtakor	585,8	102,2
Forish	416,1	99,2
Yangiobod	407,9	94,8

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




Viloyat boʼyicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **214,4** mlrd. soʼmni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʼullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʼjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **68,7** mlrd. soʼmni (oʼzgarish surʼati **30,8 %** ga kamaydi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **145,6** mlrd. soʼmni (oʼzgarish surʼati **18,2 %** ga oshdi) .

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo	122,2 mlrd. soʼm, 100 %
Dehqon bozorlari	68,7 mlrd. soʼm, 32,0 %
Chorva bozorlari	145,6 mlrd. soʼm, 68,0 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

JIZZAX VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral

2021- yilning yanvar-fevral oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **68,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **145,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdag'i tadbirkorlar (YTT) ni qo'shмаган holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	214,4	99,4	68,8	69,2	145,6	118,2
Jizzax sh.	30,3	74,8	30,3	73,3	0,0	0,0
tumanlar:						
Arnasoy	6,8	89,1	1,5	70,1	5,3	94,8
Baxmal	46,8	150,9	7,4	220,9	39,4	143,5
G'allaorol	24,9	69,8	5,5	53,6	19,4	80,9
Sharof Rashidov	19,6	64,6	0,0	0,0	19,6	64,6
Do'stlik	9,1	125,1	3,3	71,9	5,8	206,3
Zomin	31,9	82,1	9,0	76,4	22,9	86,2
Zarbdor	12,6	112,8	1,4	84,7	11,2	118,5
Zafarobod	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Mirzacho'l	6,2	73,4	2,2	93,7	4,0	64,3
Paxtakor	12,6	171,4	2,3	87,0	9,6	255,3
Forish	9,4	83,3	4,8	98,9	4,6	69,3
Yangiobod	4,2	95,1	0,4	63,5	3,8	99,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



Tuzlamalar

1,2
mlrd. so'm



Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

24,6
mlrd. so'm



1,8
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

10,7
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari

9,6
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

2021- yilning yanvar-fevral oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **68,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**24,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



1,4
mlrd. so'm

Ziravorlar



5,0
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



0,6
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)



2,8
mlrd. so'm



3,0
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari



2,6
mlrd. so'm

Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **145,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosи **102,3** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **44,3** mlrd. so'mni, otlar **3,2** mlrd. so'mni, parrandalar **0,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:




**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

JIZZAX VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral

2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,8 % ni tashkil etib, 19,5 mlrd. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,7 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	19458,1	100,7	19458,1	100,7
Jizzax sh.	9492,9	100,9	9492,9	100,9
tumanlar:				
Arnasoy	141,4	98,9	141,4	98,9
Baxmal	373,9	98,7	373,9	98,7
G'allaorol	1196,5	100,5	1196,5	100,5
Sh. Rashidov	3448,8	100,9	3448,8	100,9
Do'stlik	665,2	100,4	665,2	100,4
Zomin	1344,3	100,6	1344,3	100,6
Zarbdor	604,6	100,7	604,6	100,7
Zafarobod	178,0	99,6	178,0	99,6
Mirzacho'l	762,1	101,1	762,1	101,1
Paxtakor	636,8	100,7	636,8	100,7
Forish	493,6	100,4	493,6	100,4
Yangiobod	119,6	99,9	119,6	99,9

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 244,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **14,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **44,4** mlrd. so'mni (**46,6 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **200,4** mlrd. so'mni (**1,6 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo	244,8 mlrd. so'm, 100 %
Yirik korxonalar	44,4 mlrd. so'm, 18,1 %
Mikrofirmalar	161,6 mlrd. so'm, 66,0 %
Kichik korxonalar	38,8 mlrd. so'm, 15,9 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

JIZZAX VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**100,5 %**), Baxmal (**122,4 %**) va Forish (**94,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	244797,3	85,3	44389,0	53,4	200408,3	98,4
Jizzax sh.	140435,8	100,5	27788,0	110,5	112647,8	98,3
tumanlar:						
Arnasoy	449,4	10,6	2,1	0,1	447,3	96,2
Baxmal	20658,9	122,5	16082,8	131,5	4576,2	98,7
G'allaorol	6923,1	103,0	23,6	17,6	6899,5	104,8
Sh. Rashidov	15706,8	71,4	43,2	0,7	15663,5	96,5
Do'stlik	11923,9	70,4	19,6	0,3	11904,3	107,6
Zomin	25898,3	91,8	5,4	0,3	25892,9	97,4
Zarbdor	3287,2	27,2	2,8	0,0	3284,4	96,0
Zafarobod	1738,1	25,3	9,3	0,2	627,3	94,2
Mirzacho'l	652,6	7,9	25,4	0,3	1728,8	95,1
Paxtakor	2707,1	27,9	329,5	4,5	2377,6	97,4
Forish	13182,3	94,8	47,5	87,6	13134,7	94,8
Yangiobod	1233,7	92,4	9,8	27,2	1224,0	94,2

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Jizzax viloyati

Arnasoy

Baxmal

G'allaorol

Sh. Rashidov

Do'stlik

Zomin

Zarbdor

Zafarobod

Mirzacho'l

Paxtakor

Forish

Yangiobod Jizzax shahar

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar
2020- yil Yanvar-fevral	
2021- yil Yanvar-fevral	

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, **200,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,6 %** ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **81,9 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**100,0 %**), Yangiobod (**99,2 %**), G'allaorol (**99,7 %**), Forish (**99,6 %**), Sharof Rashidov (**99,7%**) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**22,2 %**), Mirzacho'l (**96,1 %**) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26